

PEDAGOGIK MULOQOTNING PEDAGOG KASBIY FAOLIYATIDAGI AHAMIYATI

Ro‘zimatova Maxpuza Xolmuxamedovna,
Farg‘ona Korea xalqaro Universiteti

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18513837>

Annotatsiya. Maqola “Pedagogik muloqot” tushunchasining ilmiy-nazariy jihatlarini tahlil qilish, pedagogik muloqot amaliyotining o‘qituvchining kasbiy faoliyati hamda ta’lim-tarbiya jarayonidagi ahamiyatini o‘rganishga bag‘ishlangan. Pedagogik muloqot mavzusi bilan bog‘liq tadqiqotlarda bu muammoga nisbatan asosiy yondashuvlar, ilmiy qarashlar o‘rganilgan. O‘qituvchi tomonidan pedagogik muloqotni samarali tashkil etish imkonini beradigan eng muhim shartlar, omillar, vosita, uslub va shakllar aniqlashtirilgan.

Kalit so‘zlar: ta’lim-tarbiya jarayoni, o‘qituvchi, o‘quvchi, muloqot, pedagogik muloqot.

Аннотация. Статья посвящена анализу понятия “Педагогического общения”, изучению роли и значения практики педагогического общения в профессиональной деятельности педагога в процессе обучения и воспитаний. Выделены основные подходы, выражающие научно-теоретическое толкование взглядов на основе понятия «педагогического общения». Определены главные условия, факторы, средства, стили и формы, обеспечивающие успешность организации педагогического общения учителем.

Ключевые слова: общение, педагогическое общение, коммуникация, педагогическое воздействие, стили педагогического общения.

Abstract. This article analyses the concept of “Pedagogical Communication” and examines the role and significance of the practice of pedagogical communication in the process of teaching and education. It also highlights the main approaches that reflect the scientific and theoretical interpretations of perspectives on “pedagogical communication”. Additionally, the article identifies the main conditions, factors, tools, styles, and forms that are necessary for the successful organization of pedagogical communication by a teacher.

Keywords: communication, pedagogical communication, pedagogical influence, styles of pedagogical communication.

Kirish. Keyingi yillarda mamlakatimizda ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida ta’lim sifatini yuksaltirish, yoshlarni har tomonlama bilimli, yetuk va barkamol qilib tarbiyalash, pedagog xodimlarning kasbiy mahoratini oshirishga qaratilgan izchil islohatlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ko‘p bor e’tirof etganidek, “Ta’lim sifatini oshirish – Yangi O‘zbekiston taraqqiyotining yakkayu yagona to‘g‘ri yo‘li” deb qaralmoqda [1].

O‘z navbatida, bu yo‘nalishdagi dolzarb vazifalarning amaliy natijasi, ta’lim va tarbiya jarayoning samaradorligi o‘qituvchilarning fidokorona mehnati, kasbiy malakasi va pedagogik mahoratiga bog‘liq. Shu sababli ham, pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yagona yondashuv asosida tubdan takomillashtirish, mazkur yo‘nalishdagi oliy ta’lim dasturlarini xalqaro mezonlar darajasida tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratilmoqda [2].

Zamonaviy ta’lim tizimida pedagog-o‘qituvchilarga qo‘yiladigan talablar oshib bormoqda. Yangi davr o‘qituvchisi har jihatdan yetuk mutaxassis, o‘quvchilarga har qanday vaziyatda to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi jonkuyar tarbiyachi bo‘lishi shart. O‘quv-

tarbiya jarayonining samaradorligi o'qituvchining kasbiy mahorat va pedagogik muloqot darajasiga bog'liqdir. Shu ma'noda, bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik mahorat va pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish amaliy ahamiyatga ega.

Pedagogik muloqot pedagogik mahoratning muhim tarkibiy qismi bo'lib, u o'quvchilarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish bilan bog'liq vazifalarni hal qilishda o'qituvchi ixtiyorida eng muhim vosita hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim-tarbiya jarayoni va o'qituvchining kasbiy mahoratida pedagogik muloqotning o'rnini xorijiy va mamlakatimiz olimlari hamda pedagog-mutaxassislar tomonidan o'rganilib kelinmoqda. Ma'lumki, "Pedagogik muloqot" atamasini psixologiya va pedagogika fanlari kategoriyasi sifatida tizimli o'rganish A.A.Leontyev va V.A.Kan-Kaliklar tomonidan XX asrning 70-yillarida boshlangan. Hozirgi vaqtda mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari, xususan, bo'lg'usi o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish tizimida pedagogik muloqotning ayrim nazariy va ilmiy masalalari "Pedagogik mahorat" fani doirasida o'rgatilmog'da. [5.149] Pedagogik muloqotning ayrim jihatlari S. Xo'janazarova va M.Oripova [8.39–45], Z.A. Abdurahmonova [9.17–21], N.S. Sayidaxmedovlar tomonidan o'rganilgan [10.47].

Bunday tadqiqot natijalarida aniqlanganidek, "Pedagogik muloqot" tushunchasining mazmun-mohiyati shaxslararo muloqotning o'ziga xos bir shakli sifatida ko'rinadi. Ta'lim-tarbiya jarayonida muloqot pedagogik faoliyatning muhim kasbiy kategoriyasi sifatida namoyon bo'lib, birinchidan, o'quv vazifalarini bajarish, ikkinchidan, tarbiya jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'minlash, uchinchidan, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi ta'lim-tarbiya ishlarini samaradorligini ta'minlovchi munosabatlarni boshqarish vositasi sifatida xizmat qiladi [11.190].

A.A. Leontev pedagogik muloqotni "o'qituvchining o'quvchilar bilan dars va darsdan tashqari (o'qish va tarbiya jarayoni) sharoitlarda ma'lum bir pedagogik funksiyalarga ega bo'lgan, ta'lim-tarbiya faoliyati hamda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi bilan munosabatlarni maqbullashtirishga, qulay ruhiy-psixologik muhitni yaratishga, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga yo'naltirilgan professional muloqoti" deb ko'rsatgan [12.96].

V.A. Kan-Kaliki N.D. Nikandrovlar pedagogik muloqot tushunchasining mohiyatini "axborot almashish, shaxsni anglash, tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish kabi pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi o'zaro ta'sir etish tizimi" sifatida talqin etadilar. Pedagog ushbu jarayonning tashabbuskori, tashkilotchisi va boshqaruvchisi vazifalarini bajaradi [13.144].

Pedagogik muloqot jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga bilim berish, ularni aqliy faoliyat usullariga o'rgatish, ta'lim jarayonini boshqarish, ish uslublari bilan qurollantirish, o'quvchilarni darsga qiziqtirish, o'qituvchi-o'quvchi hamda o'qituvchi-o'quvchilar guruhi (talabalar jamoasi) bilan o'zaro munosabatlarni ma'lum qoidalar doirasida bo'lishini ta'minlash kabi vazifalarni amalga oshiradi.

Pedagogik muloqot vositasida o'qituvchi o'zining kasbiy mahorati va shaxsiy sifatlaridan foydalanib, o'quvchilarni mashg'ulotlarga qiziqtirish va ularda ijodiy yondashuvni rivojlantirish, sinfda (guruhda) ijobiy emotsional muhitni ta'minlash uchun eng qulay sharoitlarni yaratishga harakat qiladi.

Pedagogik muloqotda o'qituvchi va o'quvchilarning yakdilligi, yaqindan hamkorligi muhimdir. I.A.Zimnyayaning ta'rifiga ko'ra, pedagogik muloqot o'quvchilarning ta'lim olishi va barkamol shaxs sifatida rivojlanishiga xizmat qiladigan o'qituvchi va o'quvchilarning o'quv jarayonidagi birgalikdagi faoliyati, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi hamkorlik shakli sanaladi. [14.448] O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida jamoaviylik hissini, "biz" degan qarashni shakllantirish, ijtimoiy-psixologik to'siqlarni birgalikda bartaraf etish va umumiy maqsad yo'lida hamjihatlikda harakat qilish shunday hamkorlikni kuchayishiga xizmat qiladi.

Masalan, R.Safarova, F.Yusupovalarning ilmiy izlanishlarida o'qituvchi va o'quvchi, shuningdek, o'quvchilarning o'rtasidagi o'zaro hamkorlikka asoslangan pedagogik muloqotni rivojlantirishda shaxsga yo'naltirilgan texnologiyalarni qo'llash ijobiy natija berishi aniqlangan. [15.27–28] Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning o'ziga xos jihati ta'lim oluvchi shaxsini tan olish, uni har tomonlama rivojlantirish uchun qulay, zarur muhitni yaratishdan iborat.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda pedagogik muloqot muammosini o'rganishda tahlil va sintez, qiyosiy-taqqoslash, tizimli yondashuv hamda pedagogik adabiyotlarni o'rganish metodlaridan foydalanildi. Pedagogik muloqotga oid xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy qarashlari nazariy jihatdan tahlil qilindi. Shuningdek, ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik muloqotning ahamiyatini aniqlashda umumlashtirish va xulosalash metodlari qo'llanildi. Tadqiqot natijalari pedagog kasbiy faoliyatida pedagogik muloqotni samarali tashkil etish bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalar chiqarishga xizmat qildi.

Tahlillar va natijalar. Pedagogik muloqotga bag'ishlangan ilmiy adabiyotlar va bu tushuncha bilan bog'liq ilmiy-nazariy qarashlarni tahlil qilish uning bir qator o'ziga xosliklarga ega ekanini aniqlash imkonini beradi. Pedagogik muloqot pedagog kasbiy faoliyatining asosi ekanini nazarda tutgan holda, uning asosiy xususiyatlarini ko'rsatish o'rinli:

– pedagogik muloqot har doim bilim berish, o'rgatish, rivojlantirish, tarbiyalash xususiyatiga ega;

– pedagogik muloqot har doim muloqot ishtirokchilarining shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga, ular o'rtasidagi munosabatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan;

– pedagogik muloqot ijodiy xususiyatga ega, u doim rivojlantirilib boriladi. O'qituvchi o'z faoliyati, xatti-harakatlari, muloqot texnikasi, unda qo'llanadigan vosita, usul va shakllarni har doim o'quvchilarning yoshi, psixologik va individual xususiyatlaridan kelib chiqib o'zgartirib, rivojlantirib boradi.

Pedagogik muloqotning o'ziga xos xususiyatlari uning aniq maqsad va vazifalarga egaligi, bunday muloqotning maxsus tashkil etilishi, unda qo'llanadigan usul va vositalarda ko'rinadi.

Pedagogik muloqotning asosiy maqsadlari pedagogik faoliyatning asosiy vazifalari, ya'ni, yoshlarga bilim berish, ularni tarbiyalash, har tomonlama yetuk va barkamol shaxs sifatida rivojlantirish kabi maqsadlardan kelib chiqadi. Pedagogik muloqot mavzusiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarda ushbu bog'liqlikka alohida e'tibor berilgan.

Ma'lumki, o'quv jarayonining asosiy maqsad va vazifalari ta'lim va tarbiya berish, o'quvchilarni shaxs sifatida rivojlantirishdan iborat. Bu yo'nalishdagi vazifalarni hal qilishda pedagogik muloqot alohida o'ringa ega. Ta'lim-tarbiya jarayonida pedagogik muloqot o'qituvchiga o'quvchilar bilan psixologik aloqa o'rnatish, tegishli bilim va ko'nikmalarni yaxshi o'zlashtirishlari uchun qulay sharoit yaratish imkonini beradi, shaxslararo yaqin munosabatlar shakllanadi, psixologik to'siqlar bartaraf qilinadi. Yoshlarni rivojlantirishga qaratilgan vazifalarni amalga oshirishda pedagogik muloqot vositasida o'quvchilar mustaqil o'qish va o'rganish, mushohada qilishga o'rgatiladi, ularning o'ziga xos jihatlari ochiladi, ijodiy yondashuvlari rag'batlantiriladi, tortinchoqlik, o'ziga ishonchsizlik kabi kamchiliklar tuzatiladi [11.13].

Pedagogik muloqotning asosiy maqsad va vazifalari qatoriga quyidagilar kiradi:

- o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli, hamkorlikka asoslangan munosabatlarni o'rnatish va rivojlantirish;
- o'quvchilarning bilim va malakalarini oshirish, o'quv jarayoniga qiziqishi, mustaqil fikrlash va yangi bilimlarni o'zlashtirish ko'nikmalarini kuchaytirish;
- o'quv jarayonini mazmunli va samaradorligini ta'minlash, o'quv materiallarini o'quvchining yoshiga va darajasiga mos ravishda, qiziqarli va tushunarli qilib yetkazish;
- o'quvchining ijtimoiy aloqalarini rivojlantirish, uning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirish, mustaqil va ma'naviy barkamol shaxs sifatida shakllanishiga ko'maklashish.

Pedagogik muloqot o'quv vazifalarini hal qilish, tarbiya jarayonini ijtimoiy-psixologik jihatdan ta'minlash, pedagog va o'quvchilar munosabatlarini tashkil etish vositasi sifatida namoyon bo'ladi hamda ta'lim-tarbiya ishining muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi. Buning uchun pedagog va o'quvchilar o'rtasidagi muloqot emotsional qulay, ularning yetuk shaxs bo'lib ulg'ayishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Pedagogik muloqot o'qituvchi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq ravishda tashkil etilishi shart bo'lib, bu ham pedagogik muloqotning o'ziga xos jihatlardan biri hisoblanadi. Pedagogik muloqot aniq maqsad – ta'lim-tarbiya berishga qaratilgan bo'ladi, shaxslararo muloqotda ko'p uchraganidek, o'zidan-o'zi yuzaga kelmaydi, balki o'qituvchi tomonidan maxsus tayyorgarlik, aniq reja asosida tashkil etiladi. Pedagogik muloqotni sifatli tashkil etish o'qituvchidan yuksak kasbiy mahorat, muomala madaniyati, kuzatuvchanlik, o'quvchilarga xayrihoxlik, hamdardlik va boshqaruv ko'nikmalariga ega bo'lishni talab qiladi.

O'qituvchi o'zining kasbiy vazifalarini bajarishi, o'quvchilarga tegishli bilim va axborotlarni yetkazishi, sinf va talabalar guruhida ta'lim-tarbiyaviy ishlarni olib borishi uchun maqsadli va izchil shakllantirilgan pedagogik muloqotdan foydalanadi.

Bir qator ilmiy adabiyotlarda pedagogik muloqot jarayoni quyidagi bosqichlardan iboratligi ko'rsatilgan:

- modellashtirish bosqichi, bunda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar bilan bo'lajak muloqot jarayoni rejalashtiriladi, uning maqsad va vazifalari, uslub va vositalari aniqlanadi, muloqot natijalari taxmin (prognoz) qilinadi;

- tashkiliy bosqich – muloqotning boshlanish davri bo'lib, bunda auditoriya bilan qanday aloqa o'rnatilishi, o'quvchilarda qanchalik qiziqish uyg'onishi muloqotning qay tarzda rivojlanishi va aydi;

- muloqotni boshqarish bosqichi, bunda o'qituvchi muloqotni yo'naltirib, yuzaga kelgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda boshqarib boradi;

- amalga oshirilgan muloqot natijalarini tahlil qilish, yutuq va kamchiliklarni xolisona baholash, keyingi muloqotlarni modellashtirish bosqichi. [16.116]

O'qituvchi muloqotni modellashtirish bosqichida har bir o'quvchining psixologik xususiyatlarini bilishi, muloqot ularning ruhiy holatiga, qiziqishlariga mos bo'lishini ta'minlashi, muloqot jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlarni oldindan ko'ra olish va uni bartaraf etish yo'llarini nazarda tutishi zarur.

Muloqotning dastlabki bosqichida ishtirokchilarni qiziqtiruvchi, jalb etuvchi usul va vositalardan unumli foydalanishi, erkin fikr almashish, savol-javob va munozaralar muhitini yaratish muhim.

Muloqot davomida o'qituvchining faoliyati bevosita muayyan bilimlarni o'quvchilarga yetkazish, o'quvchilar faolligini qo'llab-kuvvatlashga qaratiladi.

Amalga oshirilgan muloqot natijalari keyinchalik jiddiy tahlil qilinishi, kelgusi ta'lim-tarbiya jarayonlari yutuq va kamchiliklarni inobatga olingan holda rejalashtirilishi maqsadga muvofiq.

Pedagogik muloqot o'qituvchidan tezkorlik va moslashuvchanlikni talab qiladi, u vaziyatga tez moslashish, o'quvchilarning psixologik holatini o'z vaqtida his qilish, zarur holatlarda o'zining kommunikativ strategiyasiga tuzatish kiritish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik muloqotning samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, pedagog mahorati, o'qituvchining shaxsiy sifatleri, bilim va malakasi bunda muhim o'rin tutadi. O'qituvchining kasbiy kompetentligi, o'quvchilar psixologiyasini yaxshi bilish, ularning xulq-atvorini tahlil qilish va tushunish o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi muloqotning muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Pedagogik muloqotning samaradorligi omillari qatorida o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalari, o'quvchilarni tinglash, o'z fikrini verbal va noverbal vositalar orqali to'g'ri va aniq yetkaza olish qobiliyati, ruhiy-emotsional chidamlilik, o'zini tuta olish, o'quvchilar his-tuyg'ularini tushunish, ularga hayrixox bo'la

olish, o'z ishiga qiziqish va o'quvchilarni o'quv jarayoniga qiziqitira olish singari sifatlarini ta'kidlab o'tish mumkin.

Pedagogik muloqot samarali bo'lishi uchun u insonparvarlik tamoyillariga asoslanishi, unda o'quvchi shaxsiga hurmat, ishonch va e'tiborni hisobga olinishi kerak. O'quv jarayoni uchun bilim olishga qiziqish va ijodiy izlanishni rag'batlantiruvchi ijobiy, psixologik qulay muhit yaratilishi shart. O'zaro munosabatlar, ya'ni, teskari aloqa rivojlangan bo'lishi maqsadga muvofiq. O'qituvchining o'z vaqtida o'quvchilar fikri, nuqtai nazarini bilib turishi muhim, shunda o'quv jarayoniga zarur tuzatishlar kiritib borish imkoni bo'ladi.

Pedagogik muloqot ta'lim-tarbiya ishlarini olib borishning asosiy shakli hisoblanadi. Uning samaradorligi ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilari tomonidan bunday muloqotning maqsad va vazifalarini to'g'ri anglash, ularni o'zining shaxsiy faoliyati uchun dasturi amal sifatida qabul qilishlariga bog'liq.

Umuman olganda, pedagogik muloqot – o'qituvchiga ta'lim-tarbiya jarayonida o'quvchilarni bilish va o'rganish, o'quv jarayonini ijodiy ruhda tashkil etish, o'quv jamoasida ijtimoiy-psixologik jarayonlarni to'g'ri boshqarishni ta'minlash, yoshlarni zarur bilim va ko'nikmalarga o'rgatishda o'z pedagogik mahoratidan oqilona foydalanishi uchun imkoniyatlar yaratadigan muhim vositadir.

O'qituvchi bu jarayonning tashabbuschisi bo'lishi, uni tashkil etishi va boshqarishi kerak. Pedagogik muloqotni to'g'ri tashkil qilish uchun bo'lg'usi o'qituvchi uning mazmun-mohiyatini, maqsad va vazifalarini yaxshi tushunishi, muloqot vositalari, uslublari va turli shakllarini qo'llash ko'nikmalarini egallagan bo'lishi shart. Bunda o'qituvchining shaxsiy sifatleri – o'quvchi psixologiyasini yaxshi bilishi, kuzatuvchanlik, e'tiborlilik, emotsional rivojlanganlik, o'ziga to'g'ri baho berish, muomala madaniyati, notiqlik mahorati singari xislatlar muhimdir.

Xulosa. Ta'lim tizimining hozirgi rivojlanish davrida o'quvchilarning muqobil manbalardan axborot olish va mustaqil o'qish va o'rganish imkoniyatlari kengayib bormoqda, biroq, o'qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonidagi vazifalari saqlanib qolmoqda. Zamonaviy o'qituvchining kasbiy faoliyati samaradorligi, ta'lim sifati shaxsga yo'naltirilgan ilg'or ta'lim texnologiyalari, jumladan, pedagogik muloqot texnikasini qay darajada egallaganligi bilan belgilanmoqda.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, yangi ta'lim texnologiyalari, vosita, uslub va shakllari bilan bog'liq bilim va qobiliyatlarini oshirish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Bo'lg'usi o'qituvchilarni amaliy-pedagogik faoliyatga tayyorlash, ularni kasb mahorati va pedogigik muloqot sirlarini egallashida yuqorida keltirilgan talablarni inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev. Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20 dekabr 2022. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/en/docs/5013007>.
3. "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.06.2022 yildagi PQ-289-son Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/6079561>.
4. "Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.04.2025 yildagi PF-73-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/7499721>
5. Azizxo'jayeva N.N. *Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat*. – Toshkent: TDPU, 2003. – 174 b.
6. Xoliqov A. *Pedagogik mahorat: o'quv qo'llanma*. – Toshkent: «Iqtisodmoliya» nashriyoti, 2010. – 312 b;
7. Sultonova G.A. *Pedagogik mahorat*. – Toshkent: Nizomiy nomli TDPU, 2005. – 149 b.;
8. S.Xo'janazarova, M.Oripova. O'qituvchilarda muloqot madaniyatini shakllantirishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning pedagogik asoslari // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye, 2015. №4. –B.39-45: <https://cyberleninka.ru/article/n/ituvchilarda-mulo-ot-madaniyatini-shakllantirishda-zamonaviy-tehnologiyalardan-foydalanishning-pedagogik-asoslari> (murojaat qilingan sana 11.11.2025 y.).
9. Abdurahmonova Z.A. O'qituvchi va o'quvchining hamkorlik faoliyatini tashkil etishning pedagogik-psixologik xususiyatlari // Zamonaviy ta'lim / Sovremennoye obrazovaniye, 2017. №9. – B. 17-21. <https://cyberleninka.ru/article/n/ituvchi-va-uvchining-amkorlik-faoliyatini-tashkil-etishning-pedagogik-psihologik-hususiyatlari> (murojaat qilingan sana 11.11.2025 y.).
10. Sayidahmedov N.S. *Yangi pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot*. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2003. – 47 b.;
11. Kan-Kalik V.A. *Uchitelyu o pedagogicheskom obshenii: kniga dlya uchitel'Y*. – Moskva: Prosvesheniye, 1987. – 190 s;
12. *Pedagogicheskoye obsheniye / Pod red. M.K. Kabardova*. – 2-ye izd., pererab. i dop. – Moskva–Nalchik: [b. i.], 1996. – (Seriya «Biblioteka psixologo-pedagogicheskoy literaturi»). – 96 s.
13. Kan-Kalik V.A., Nikandrov N.D. *Pedagogicheskoye tvorchestvo*. – Moskva: Pedagogika, 1990. – 144 s.
14. Zimnyaya I.A. *Pedagogicheskaya psixologiya: uchebnik dlya vuzov*. – Moskva: MPSI; Voronej: MODEK, 2010. – 448 s.
15. Safarova R., Yusupova F. O'quvchilarda o'zaro do'stona munosabatlarga asoslanib hamkorlikda faoliyat ko'rsatish ko'nikmalarini shakllantirish strategiyasi. – Toshkent: Fan, 2013. – B. 27–28.
16. Faley M.V. *Pedagogicheskoye obsheniye: uchebnoye posobiye*. – Yujno-Saxalinsk: Izd-vo SaxGU, 2014. – 116 s.